

O'zbek xalqining tarixiy merosi o'rganishga bag'ishlangan anjuman

Markaziy Osiyo xalqlari o'zining boy tarixi va madaniyati bilan insoniyat tamaddniga katta hissa qo'shgan. Mustaqillik yillarda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy merosni o'rganish va targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda joriy yil 26-fevral kuni O'zR FA Temiriylar tarixi davlat muzeyida FA Tarix instituti hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi hamkorligida "Markaziy Osiyo tarixi va madaniyati" mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani o'tkazildi.



Unda respublikamizning turli hududlaridan kelgan olimlar va yosh tadqiqotchilar, FA ijtimoiy fanlar yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot muassasalari vakillari, mustaqil izlanuvchilar ishtirok etdi.



Anjuman doirasida O'zbekistonda tarix fanining dolzARB muammolari, arxeologiya, san'at, madaniyat, adabiyot tarixi, muzeyshunoslik va arxivshunoslik bo'yicha ma'ruzalar tinglandi a muhokama qilindi.

Anjuman yakunida o'zbek xalqining tarixiy merosi va uni o'rganishning dolzARB muammolari, istiqboldagi ilmiy yo'nalishlar belgilab olindi.



